



## XALQ TA'LIMI TIZIMIDA BOSHQARISH SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.

**Sodiqjonova Sug'diyona**

*Farg'ona politexnika instituti*

*1 kurs magistranti*

*Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani*

*E-mail: sodiqjonovasugdiyina45@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb bo'lib kelayotgan mavzulardan biri xalq ta'limi tizimida boshqarish sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvlari keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion yondashuvlar, malaka oshirish, tajriba almashish, xalq ta'lim tizimi, sifat va samaradorlik.

## INNOVATIVE APPROACHES TO INCREASE THE QUALITY OF MANAGEMENT IN THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM.

**Annotation:** This article presents innovative approaches to improve the quality and efficiency of management in the public education system, one of the current topical issues.

**Key words:** innovative approaches, advanced training, experience exchange, public education system, quality and efficiency

Bugungi kunda xalq talimi tizimida darslarning sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada tadqiqotlar o'tkazilmoqda hamda turli xil innovatsion yondashuvlar bilan tizimga samaradorlikni oshirish harakatlari olib borilmoqda. Xalq ta'limi tizimida boshqarish sifatini oshirish, ta'lim jarayonining samaradorligini va sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim masalalardan biridir. Innovatsion yondashuvlar, o'z navbatida, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik metodlar va boshqaruv strategiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar orqali ta'lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirish mumkin.

Birinchiidan innovatsion yondashuvlar, asosan, yangi g'oyalar, metodologiyalar va texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishni anglatadi. Bu, o'z navbatida, o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Innovatsion o'qitish metodlari esa o'qitish jarayonida yangi pedagogik yondashuvlar va metodologiyalarni qo'llash orqali olib boriladi. Masalan, loyiha asosida o'qitish, interfaol metodlar va individualizatsiya



Ikkinchidan raqamli ta'lim platformalari, onlayn kurslar va interaktiv dasturlar orqali o'quvchilarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga ham o'z darslarini yanada samarali o'tkazish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida ijobiy ta'sirlarni ko'rsatadi: Onlayn ta'lim platformalari orqali talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olishlari mumkin, bu esa o'qishni yanada qulay qiladi va talabalar internet orqali turli ta'lim materiallariga, darsliklarga va video darslarga erishish imkoniyatiga ega. Raqamli ta'lim vositalari o'qitishni interaktiv va qiziqarli qiladi, masalan, simulyatsiyalar va o'yinlar yordamida. Bundan tashqari Raqamli platformalar har bir talabaga o'qish imkoniyatini beradi, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni shaxsiylashtirishga yordam beradi. O'qituvchilar uchun yangi metodlarni, vositalarni va strategiyalarni qo'llash imkoniyatlari paydo bo'ladi.(1)

Uchinchidan O'qituvchilarni malaka oshirish dasturlari orqali ularning pedagogik ko'nikmalarini yangilash va innovatsion metodlarni o'zlashtirish. O'qituvchilarni doimiy ravishda yangi bilimlar bilan ta'minlash ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari bugungi kunda dolzarb masala sifatida ko'rilmogda. O'qituvchilar va ta'lim xodimlari uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini o'tkazish bugungi kunda juda ham katta ijobiy natijalarga erishishga hissa qo'shadi. Ushbu kurslar orqali o'qituvchilar va ta'lim xodimlari yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni o'zlashtiradilar va ta'lim muassasalarida yangicha uslublar orqali dars jarayonlarini qiziqarli va samarali o'tishga harakat qiladilar(4)

To'rtinchidan Ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish orqali eng yaxshi amaliyotlarni tarqatish. Bu, ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari tajriba almashish orqali nafaqat ta'lim beruvchilar balki ta'lim oluvchilarning ham dunyo qarashi kengayadi, fikrlashi oshadi va asosiysi darsga bo'lgan qiziqishi ortib yangi tajribalar oladi va ijtimoiy faolligi kuchayishi mumkin. Qo'shimcha qilib aytganda tajriba ortadi va bilim kengayib boradi.

Xalq ta'limi tizimida boshqarish sifatini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar dolzarbligi bir qator omillar bilan bog'liq. Masalan, hozirgi kunda ta'lim tizimlari orasida raqobat kuchaymogda. Innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim sifatini oshirish, mamlakatning global miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, zamonaviy o'quvchilar o'zlariga mos ta'lim shakllarini talab qilmogda. Innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish va o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish mumkin. Qo'shimcha qilib aytganda, ko'plab mamlakatlarda ta'lim tizimida mavjud muammolar (masalan, sifat, tengsizlik, resurslar yetishmasligi) innovatsion yondashuvlar orqali hal qilinishi mumkin va ta'lim sifatining oshishi ijtimoiy va



iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion ta'lim yondashuvlari orqali inson kapitalini rivojlantirish mumkin. Ushbu omillar innovatsion yondashuvlarning dolzarbligini ko'rsatadi va xalq ta'limi tizimida boshqarish sifatini oshirish zarurligini ta'minlaydi. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar nafaqat o'qituvchilar va o'quvchilar, balki butun jamiyat uchun ijobiy natijalarga olib keladi.

Shu yo'sinda, differensiyalashgan ta'lim - bu o'quv jarayonini individual talablar, qobiliyatlar, qiziqishlar va ehtiyojlarga mos ravishda tashkil etish usuli. Bu yondashuv har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi va ularning o'qish jarayonida yanada samarali bo'lishiga yordam beradi. Differensiyalashgan ta'limning asosiy maqsadi har bir o'quvchining potentsialini maksimal darajada ochishdir. Bu ta'lim jarayonida o'quvchilar qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab guruhlariga bo'lingan holda jamovaviy yoki individual ishlash imkoniga ega bo'ladilar. Ta'lim beruvchi turli metodlarni (masalan, vizual, eshitish, amaliy) mashg'ulotlarni qo'llab, har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish uslubini hisobga olib ish yuritadi. O'quvchilarga o'z bilim va qobiliyatlarini baholash imkoniyatini berish, ularga o'z taraqqiyotini kuzatishga yordam beradi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida doimiy va samarali aloqani ta'minlash, esa o'quvchilarning o'zgarishini va taraqqiyotini kuzatishga imkon beradi. Differensiyalashgan ta'limning afzalliklari, o'quvchilarning qiziqishini va motivatsiyasini oshiradi va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirishga, muvaffaqiyatni oshirishga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Differensiyalashgan ta'lim, asosan, zamonaviy ta'lim tizimlarida qo'llaniladi va u o'qituvchilar uchun yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Ta'lim tizimida ota-onalar bilan aloqalar muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam berish uchun zaruriy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida ochiq va samimiy muloqot o'rnatish, o'quvchilarning o'qish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Ota-onalarga o'quvchilarning muvaffaqiyatlari, qiyinchiliklari va taraqqiyotlari haqida muntazam ravishda ma'lumot berilsa o'quvchining darsga bo'lgan mas'uliyati ortib boradi, ularni dars jarayoniga jalb etish, masalan, ota-onalar uchrashuvlari, seminarlar yoki ta'lim tadbirlarida ishtirok etish orqali o'z farzandlarini o'qish faoliyatlarini ko'radilar. Bu yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Muammolarni hal qilish jarayonida hamkorlik qilish, o'quvchilarga yanada samarali yordam ko'rsatishga imkon beradi. Ota-onalar bilan aloqalar ta'lim tizimining muhim qismini tashkil etadi va bu aloqalarni mustahkamlash orqali o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirish mumkin.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Sodiqjonova Sug'diyona Raqamli texnologiyalarning jamiyat, ta'lim va madaniyatga ta'siri maqolasi 1kurs magistr Farg'ona 2024-yil 2-3betlar.

2. Sodiqjonova Sug'diyona xalq ta'limi tizimida kadrlar salohiyatini takomillashtirish yo'nalishlari maqolasi 1kurs magistr Farg'ona 2024-yil 3-4-5betlar.

3. Jumamurodova D., Abdulayeva U. International scientific journal science. feb. 16. 2024. 248,249 betlar.

4. Nimatullayeva M. Ta'lim tarbiyaning zamonaviy shakllari. Sirdaryo. O'qituvchi. 3(1)jan. 2023. 2-3betlar.